

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TUZILADIGAN HAQ EVAZIGA
XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMALARINING XUSUSIYATLARI BO'YICHA
XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Yoqubova Zaxroxon Xaydarxo'ja qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti Intellektual mulk va
axborot texnologiyalari huquqi mutaxassisligi magistranti. +998977197423 E-mail:
zsaydaliyeva1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis ishida qonunchilikdagi muammolarni aniqlash, qonunchilikni qay tartibda ishlayotganligini bilish, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujatlarni zamon talabiga mosligi, muammolarni qay darajada qamrab olishini o'rganish lozimligi chuquq o'rganildi. Raqamli texnologiyalar yordamida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari orqali tomonlar o'zaro majburiyatlar va huquqlarni aniqlashtiradilar, bu esa iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Huquqdagi bo'shliqlarga aniq va to'g'ri yechim berishda, qonunchilikni takomillashtirishda muammolarni hal qilishda xorij tajribasining o'rni beqiyosdir. Rivojlangan davlatlar qonunchilik tizimidan ko'plab jihatlarni o'rganish va milliy qonunchilikka tatbiq qilish yo'llarini izlash lozim. Xorij tajribasini o'rganish asnosida huquq va qonunchilik tizimi rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadigan, AQSHning raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari xususiyatlari masalasiga oid huquq hamda qonunchilik tizimlari tahlil qilindi. Tezis davomida AQSH, Rossiya va Xitoy kabi rivojlangan davlatlar qonunchiligida raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalarining har biriga xos bo'lgan huquqiy xususiyatlar yoritiladi. Shuningdek, mazkur shartnomani tuzish, bajarish va bekor qilish tartiblari, amaliyotda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida ham fikr yuritiladi. Tezis natijalari haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasining huquqiy asoslarini chuqur anglash, uning zamonaviy talablar asosida rivojlanishiga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish, ijrochi, buyurtmachi, UETA, E-SIGN, Rossiya Fuqarolik kodeksi, CHIMEI Corporation.

Raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari AQSH qonunchiligida

AQSHning raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari xususiyatlari masalasiga oid huquq hamda qonunchilik tizimlari tahlil qilindi. AQShda SI tizimlari va raqamli texnologiyalarni tartibga soluvchi maxsus federal qonunlar hali mavjud emas. Biroq, asosiy qonunchilik hujjatlari elektron shartnomalar va imzolarni tan oladi. Masalan, Uniform electronic transactions act (UETA) - elektron shartnomalar va imzolarni qonuniy kuchga ega deb tan oladi va Electronic signatures in global and national commerce act (ESIGN) - elektron imzolarni qabul qilish va ularni an'anaviy imzolar bilan tenglashtirishni ta'minlaydi. AQShda esa, 2024-yil statistik

ma'lumotlariga ko'ra, Amerika korporatsiyalarining 85% dan ortig'i shartnoma boshqaruvi jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanmoqda. Bu:

- SI asosida avtomatlashtirilgan shartnoma tahlili (contract analytics),
- elektron imzo xizmatlari (DocuSign, Adobe Sign),
- raqamli arxiv tizimlarini (cloud-based CMS) o'z ichiga oladi [1]

SI tizimlari tomonidan yaratilgan yoki boshqarilgan shartnomalar ham ushbu qonunlar doirasida ko'rib chiqiladi, ammo SI tizimining o'zi huquqiy shaxs emasligi sababli, uning ishlashida inson omilining roli muhim hisoblanadi. AQShda SI tizimlarining javobgarligi, shaffofligi masalalari bo'yicha hozircha keng qamrovli huquqiy tartibga solish mavjud emas, bu sohada shtatlar va soha tashkilotlari o'z standartlarini ishlab chiqmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari global darajada moliyaviy, tijoriy va huquqiy infratuzilmaning ajralmas qismiga aylangan. XX asr oxiri va XXI asr boshidan boshlab, yuqorida so'z yuritganimizdek AQShda E-SIGN va UETA qonunlari, hamda bir nechta shtatlarning (masalan, Vermont, Arizona) elektron imzolar va smart contractlarning qonuniyligini qog'ozdagi hujjatlarga tenglashtirishi bu sohada ilg'or me'yoriy tartibni shakllantirdi. Ayniqsa, Arizona shtatining 2017-yildagi Electronic Transactions Act yangilanishlari «smart contract» tushunchalarini tushuntirib, AQShda kod orqali bajariladigan shartnomalarni rasmiy tartibga solishni boshladi [2] UETA nima uchun raqamli texnologiyalar, xususan, blokcheyn yaratgan tranzaksiyalarga tatbiq etilishini tushunish uchun, avvalo, bu texnologiya orqali qanday turdagi tranzaksiyalar amalga oshirilishi mumkinligini va UETA belgilagan asosiy tushunchalar hamda qoidalarni anglash muhimdir. Blokcheyn yordamida amalga oshiriladigan tranzaksiyalar elektron tarzda tuzilgan shartnomalarni elektron imzolashni, hujjatlarni elektron tarzda yetkazib berishni, kelishilgan uchinchi tomon ma'lumotlari blokcheynga kiritilganda "aqli shartnoma" shartlarining avtomatik bajarilishini o'z ichiga olishi mumkin. Shuningdek, blokcheynlar o'ziga kiritilgan ma'lumotlar va yozuvlar uchun elektron ombor vazifasini ham bajarishi mumkin. UETA mualliflari 1999-yildayoq raqamli aktiv tokeni tushunchasini tan olib, shunday deyishgan: "Muomaladagi veksel bilan bog'liq huquqlarni o'zida mujassam etgan noyob elektron tokenga egalik qilish imkonini beradigan texnologiya hali ishlab chiqilmagan". Masalan, uning 16-bo'limida nazorat tushunchasi va egalik qilishning o'rnini bosishga mo'ljallangan. UETA kelajak texnologiyalarining paydo bo'lishini hisobga olgan holda maxsus ishlab chiqilgan. UETA elektron tranzaksiyalarni tasdiqlash maqsadiga mos ravishda moslashuvchan qo'llanishga imkon berish uchun yaratilgan. UETAning qoidalari elektron vositalardan foydalanishni tasdiqlash va amalga oshirish orqali sudlarga ularni yangi va kutilmagan texnologiyalar hamda amaliyotlarga qo'llash imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar rivoji Rossiya misolida

Raqamli texnologiyalar rivoji Rossiya zamonaviy iqtisodiyotining raqamlashtirish sharoitida transformatsiyasi xizmatlar ko'rsatish bo'yicha butun mol-mulk munosabatlari spektrini, ularni milliy fuqarolik qonunchiligi doirasida tartibga solish istiqbollarini kompleks tahlil qilishni talab etmoqda. Davlat tomonidan yangi normativ-huquqiy tartibotlarni yaratish uchun vektor belgilovchi dasturiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

Masalan, “Rossiya Federatsiyasining raqamli iqtisodiyoti” milliy dasturi doirasida “Raqamli muhitni normativ tartibga solish” federal loyihasi amalga oshirilmoqda. Bu loyiha doirasida raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar ko’rsatish bilan bog’liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishning yagona tizimi yaratilishi ko’zda tutilgan. Hozirda Rossiya Federatsiyasida raqamli xizmatlar ko’rsatish bilan bog’liq muomalani huquqiy tartibga soluvchi maxsus normativ-huquqiy asos mavjud emas. Amaliyotda klassik yondashuvlar qo’llanilmoqda. Raqamli muhitni normativ tartibga solish bo’yicha federal loyiha doirasida “Raqamli iqtisodiyot rivoji bilan bog’liq munosabatlarni kompleks huquqiy tartibga solish konsepsiyasi” ishlab chiqilgan bo’lib, bu huquqiy o’zgarishlarni tizimli tushunish uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Ushbu konsepsiyada fuqarolik qonunchiligini rivojlantirish bo’yicha xizmatlar muomalasiga tegishli bo’lgan ayrim takliflar alohida e’tiborga loyiqdir. Jumladan:

1. raqamlashtirish sharoitida bitimlarni tartibga solish bo’yicha qonunchilikni rivojlantirish;

2. qonuniy to’lov vositalaridan foydalanmasdan hisob-kitob birligi sifatida va majburiyat tomonlari sifatida bevosita o’zaro aloqasiz raqamli makonda virtual oborotni qonuniy tartibga solish;

3. davlat reyestrlarini yoki registrlarini raqamlashtirish, bunda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning raqamli profillaridan foydalanish imkoniyatlari hisobga olinadi va boshqalar.

Rossiyada ham elektron shartnomalar keng qo’llanmoqda, ayniqsa xizmat ko’rsatishning onlayn ta’lim, konsalting, IT xizmatlar, Ma’lumotlar tahlili, Moliyaviy texnologiyalar (FinTech) va boshqalarni sanab o’tishimiz mumkin. Bundan tashqari, virtual aktivlar va tokenlar orqali xizmatlar ko’rsatish bo’yicha Rossiya qonunchiligi hali rivojlanish bosqichida, aniq tartibga solinmagan, lekin amaliyotda kengaymoqda. Raqamli reyestrlar, elektron notarial xizmatlar va fuqarolarning raqamli profillaridan foydalanish qonunchilikda aks ettirilmoqda. Rossiya qonunchiligi raqamli texnologiyalar orqali tuziladigan xizmat shartnomalarini huquqiy jihatdan tan oladi va ular uchun maxsus me’yoriy bazalar ishlab chiqmoqda. Bu soha faol rivojlanmoqda va xizmatlar ko’rsatish shartnomalarining elektron va avtomatlashtirilgan shakllari (masalan, smart-kontraktlar) Rossiyada yaqin yillarda huquqiy jihatdan kengroq tatbiq etilishi kutilmoqda.

Xitoyda raqamli texnologiyalar orqali xizmat ko’rsatish shartnomalari

Xitoyda raqamli texnologiyalar orqali xizmat ko’rsatish shartnomalari to’liq huquqiy tan olingan, kontent taqdimoti, elektron imzo, ma’lumotlar himoyasi va ba’zi holatlar (masalan, foydalanuvchi imzosi yoki qaror qabul qilish) ruxsat etilgan. Biroq ma’lum sohalar-nikoh, meros, ko’chmas mulk-elektron shartnomalar uchun cheklangan. Xitoyda raqamli texnologiyalar yordamida haq evaziga xizmat ko’rsatish shartnomalarini tartibga solish asosan 2021-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Fuqarolik Kodeksi orqali tartibga solinadi. Ushbu kodeksning 469-moddasida taraflar shartnomani yozma yoki elektron shaklda tuzishlari mumkinligi belgilangan [3]. Elektron ma’lumotlar (e-mail, WeChat chatlari) yozma shaklga tenglashtiriladi. Xitoy fuqarolik kodeksining 491-moddasida esa agar onlayn platformada e’lon qilingan xizmatlar taklif (offerta) sifatida qaralsa va foydalanuvchi buyurtma (aksept) yuborsa, shartnoma shu paytda tuzilgan hisoblanadi.

Xizmatni bajarish vaqti elektron yoki amaliy hujjatda ko'rsatilgan vaqtda yoki xizmat uyg'un ravishda bajarilganda hisoblanishi belgilangan. Bunga asos qilib Xitoy fuqarolik kodeksining 512-moddasini ko'rsatishimiz mumkin. Xitoyda raqamli texnologiyalar asosida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalarini tuzishdagi yana bir qonunchilik Elektron imzolar (Electronic Signature Law) to'g'risidagi qonundir. Ushbu qonun 2004 yilda qabul qilingan, Ushbu qonunning 3-moddasida taraflar agar elektron imzodan foydalanish bo'yicha kelishuvga erishsa, elektron imzo an'anaviy qo'l imzosi yoki muhr bilan teng kuchga ega ekanligi belgilangan[4] Ishonchli elektron imzo-ya'ni "reliable e-signature"-ba'zi mezonlarga javob bersa, qonuniy kuchga ega, masalan, shaxsni aniqlash, o'zgartirishlarsiz saqlanish, va h.k. Elektron raqamli imzo raqamli texnologiyalarga asoslangan shartnomalar tuzishda katta ahamiyat kasb etadi va bu qonunchilik orqali Xitoyda raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari xususiyatlari tartibga solinadi.

Xulosa

Yuqoridagi xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, milliy qonunchilikni takomillashtirish kerak. Avvalo, O'zbekiston sharoitida xuddi AQSH kabi raqamli shartnomalarning huquqiy maqomini mustahkamlash, xavfsizlikni oshirish va Xitoy kabi xalqaro bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirish kerak. Xalqaro standartlarga mos milliy qonunchilikni takomillashtirish O'zbekistonga ushbu shartnomalar bilan bog'liq muammolarni oldini olishga, javobgarlik masalalarini hal etishga va shartnoma tuzish, undan foydalanishni aholi uchun osonlashishiga olib keladi. eIDAS (YI) va MLEC (BMT) model qonunlari asosida elektron imzo, raqamli identifikatsiya va hujjat aylanishini tartibga soluvchi yagona milliy qonun (masalan, "Elektron shartnomalar to'g'risida" qonun) qabul qilinishi ham ijobiy oqibatlariga olib keladi. AQSH kabi SI va Big Data asosida avtomatlashtirilgan shartnoma boshqaruvi tizimlarini joriy etish va bu orqali davlat va biznes subyektlari hujjat yuritish samaradorligini oshirish bilan birga inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytiradi. Xitoyning qonunchilik normalarini o'rganib chiqib, elektron imzoning boshqa davlatlar tomonidan tan olinishini ta'minlash bo'yicha ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama kelishuvlar zarur. Bundan tashqari, elektron raqamli imzolar bilan har qanday shartnoma va hujjatlarni tasdiqlashni majburiylashtirish raqamli shartnomalarni xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi. Elektron dalillarni sud jarayonida qabul qilish va baholash bo'yicha maxsus tartiblar ishlab chiqish, shartnomalarda texnik xavf va fors-major bandlarini kiritish O'zbekistonda raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalarining xususiyatlarini ochib berishga, shartnoma tuzish, undan foydalanish va taraflarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1.1. Rossiya Fuqarolik kodeksi

1.2. Civil Code of the People's Republic of China (Adopted at the Third Session of the Thirteenth National People's Congress on May 28, 2020)

1.3. Electronic signature law of the People's Republic of China.

V. Internet sahifalari:

1.1. <https://share.google/hMtZftNcXrEd5BETl>